

AYOLLARNING JAMIYATDAGI O'RNI

Kurbanbayeva Sanayim Maman qizi

*Xo'jayli tumani 1-sonli texnikumning
o'zbek tili va adabiyoti fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ayollarning jamiyatdagi o'rni, ularning qilgan buyuk ishlari, ayollarning timsollari badiiy asarlarda, she'rlarda aks etishi, gender tengligi kabi masalalar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: gender, xarakter, Konsitutsiya, Prezident

yol bu so'zni eshitganimizda birinchi navbatda onamiz keyin esa, opamiz, singlimiz, buvimiz va boshqa yaqin insonlarimiz ko'z oldimizda gavdalanadi. Bejizga ayol kishini gulga o'xshatmaydi. Ayol misli gul kabi nozik, shuningdek qalbi esa bamisoli kapalakdek bo'lgani uchun ham ayol xarakterida qaysarlik va tez xafa bo'lish kabi xislatlar namoyon bo'ladi. Faqatgina ayollar o'z oilasini, farzandlarini o'ylab, barcha narsaga tayyor turadi, xattoki farzandi uchun ayol kishi jonini ham berishga tayyor. Afsuski, bugungi kunda ayol kishiga qo'l ko'tarish, zo'ravonlik, taqib qilish, kamsitish kabi holatlar ham uchrab turadi. Shuning uchun ham jamiyatda oilaga, ayolga bo'lgan munosabat keskin tarzda yaxshi tomonga o'zgardi.

Buning yorqin dalili sifatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 58-moddasiga ko'ra xotin-qizlar va erkaklar teng huquqli ekanligi, ya'ni gender tengligi mavjudligini aytishimiz mumkin. Ayollar ham erkak kishilarga o'xshab harbiy sohalarda ushlay olishi, avtomobil hayday olishi, sport bilan shug'ullana olishi, tadbirkorlik qilishi, dasturchi, montaj sohasida faoliyat yuritishi, arxitektor yoki kompyuter sohalarda faoliyat yuritish huquqiga ega.

Tabiatan ayol zoti nozik bo'lgani bilan ularda jasorat, iroda mustahkam bo'ladi. Barcha murakkab ishlarni hech kimning yordamisiz ishlay oladi va buning uddasidan chiqadi. Ayollar uy-ro'zg'or ishlari, farzand tarbiyasi, shuningdek o'z ishini bir vaqtning o'zida ishlay oladi va barchasiga birdek yaxshi natija erishadi va ulguradi, vaqt topishadi. Faqat bir kasb egasi borki, ishlaganiga hech qanday haq talab qilmaydigan, bu ham bo'lsa ayol kishi, ya'ni onamizdir. Nafaqat bizning jamiyatda, balki butun dunyoda ayolga bo'lgan hurmatsizlik, johillik, tegajonlik qilish, xattoki, qo'l ko'tarish kabi holatlar ham uchrab turibdi. Besh qo'l barobar emas deganidek, jamiyatimizda bunday shavqatsiz erkaklarning yo'q bo'lishi uchun oiladagi tarbiya juda muhimdir.

Tarbiya avvalo, oiladan boshlanadi. Zero, jamiyatning taraqqiy rivojlanishida ayollarning o'rni ahamiyatlidir. Bilimsiz otadan bilimli farzand voyaga yetishi mumkin, ammo bilimsiz onadan farzand dunyoga kelishi jamiyatda bilimsiz

farzandlarning ko'payishiga olib keladi. Chunki, barcha narsa ona, ya'ni ayol bilan bog'liqdir. Shuning uchun ham birinchi navbatda ayol kishi o'qishi, bilim olishi, o'z ustida tinmay ishlashi zarur. Chunki ayol kishi o'qimay turib jamiyatda o'z o'rniga ega bo'la olmaydi. Ayol faqat o'zi uchun o'qimaydi, balki farzandining tarbiyasi uchun o'qiydi, bilim oladi. Erkak kishi o'qimay turib ham o'z kunini ko'rishi mumkin, ammo ayol kishi o'qimasa bu jamiyatning rivojiga ta'sir etishi, farzandi kelajagining barbod bo'lishiga olib kelishi muqarrar. Shuning uchun ham bugungi kunda mamlakatimizda xotin-qizlar uchun barcha shart-sharoitlar, imtiyozlar yo'lga qo'yilgan. Masalan, O'zbekistonda yosh iqtidorli qizlarga Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti ta'sis etilgan. Bu mukofot yosh qizlarning magistrga imtixonsiz talaba bo'lishiga yordam beradi. Shuningdek bugungi kunga kelib yoshlarning magistrga kirishida bepul taxsil olishi yo'lga qo'yilgani katta yangiliklardan biri bo'ldi. Talaba qiz yoshlarga foizsiz ravshda kontrakti to'lab berishi ham katta imkoniyatlardan sanaladi. Onalik va bolalikni himoya qilish uchun „Moptabar ayol“ nishoni, ehtiyojmand xotin-qizlar uchun „Ayollar daftari“ tashkil etilgan. Yana bir imkoniyatlardan biri 2021-yili ayol tadbirkorlar uchun 200 mingdan ziyod loyihalarga 2 trillion so'm kredit ajratilib, 320 ming xotin-qizlar doimiy ish o'rniga ega bo'lishdi. Shu o'rinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ayollar haqida quyidagi jumlani keltirib o'tmoqchiman:

Bugungi forovon hayotimiz ham, yorug' kelajagimiz ham ayollarga bog'liq. Agar xalqimiz bizdan rozi bo'lishni xohlasak, avvalo mo'tabar onalarimiz, opa-singillarimiz uchun turmush sharoitlari yaratishimiz kerak. Ona rozi bo'lsa, oila rozi bo'ladi, oila rozi bo'lsa, jamiyat rozi bo'ladi“.

O'zbek adabiyotida ham ayollarga bag'ishlab badiiy asarlar, qanchadan qancha she'rlar yaratilgan. Bularga Abdulla Qodiriyning „O'tkan kunlar“ asaridagi Kumush obrazi, Cho'lponning „Kecha va kunduz“ romanidagi Zebi timsoli, Otkir Hoshimovning „Ikki eshik orasi“ asaridagi Robiya timsoli, Said Ahmadning „Ufq“ romanidagi Jannat xola, „Kelinlar qo'zg'oloni“ dramasidagi deyarli barcha ayol qahramonlar, „Qorako'z majnun“ hikoyasidagi Saodat aya timsollari mahorat bilan tasvirlangan. Birgina „O'tkan kunlar“ asaridagi Kumush obrazida qizlarga xos iffat, noziklik, sharm-xayo kabi xislatlarni ko'rishimiz mumkin. Cho'lponning „Kecha va kunduz“ asaridagi Zebi obrazida esa ota-onaga bo'lgan hurmat, otaning so'zini yerda qoldirmaslik, Razzoq so'fining Zebiga taqiq qo'yishi, hatto nomahramlarga ovozi eshittirmaslikni aytgan. Bu asarda jamiyatdagi qizlarning qiziqishini so'ndirib, uydan chiqmasdan o'tirish, erkin yashashni taqiqlash kabi o'rinlarni uchratamiz. Ko'rishimiz mumkinki, ayollarning jamiyatda o'z o'rnini topishi uchun yetarlicha oilalarda qo'llab-quvvatlash yo'lga qo'yilmaganligi ma'lum. Achinarlisi shundaki, qizlarni o'qitmasdan erta turmushga berish holatlari ham uchraydi. Buning oldini olish uchun nafaqat mahalla, balki butun jamiyat kurashishi lozim. Zero, erta turmush qurish oqibatida ajrashish, bolaning nogiron bo'lib tug'ilishi yoki nuqson bilan voyaga yetishi aniq.

Chunki ayol kishi birinchi navbatda o'qib, bilim olib, kasb tanlab va shu sohada o'z o'rnini topsagina oilada va jamiyatda oz' o'rniga ega bo'lishi mumkin. Men o'ylaymanki, ayol kishining o'z kasbi yoki hunari bo'lgani yaxshi, chunki ayol kishining birovga qaram bo'lib yashashi juda qiyin vaziyatdir. Nafaqat o'ziga, balki farzandlariga ham bilimsizlaigi ta'sir etishi mumkin. Zero farzand onaga qarab tarbiya oladi va onaga qarab o'rnak oladi.

Tariximizda ham To'maris kabi mard ayyolar mavjud. Shuningdek qadimdan to hozirgi kunga qadar o'zbek shoir ayollar ham ijod etgan. Bular da Nodirabegim, Uvaysiy, Dilshod Barno, Zulfiya, Saida Zunnunova, Halima Xudoyberdiyeva va boshqa ko'plab shoiralarni namuna sifatida keltirishimiz mumkin.

Tarixda iz qoldirgan ayol qizlarning jasorati quyidagicha midollar tariqasida ko'rishimiz mumkin:

To'maris massaget qabilasi malikasi. Miloddan avvalgi 529-yili Ahamoniylar podshohi Kir II ni jang maydonida yengan.

Nazira Quljanova pedagog, etnograf, tarjimon, birinchi qozoq jurnalist ayoli;

Sofiya Hakimova 33 yoshida tibbiyot fanlari doktori darajasini olgan ilk tojik ayoli;

Xadicha Sulaymonova huquq fanlari doktori, o'zbek tilidagi jinoyat huquqi bo'yicha ilk darslikning muallifi;

Dilbar Abdurahmonova nafaqat O'zbekistonda, balki Markaziy Osiyoda birinchi ayol dirijyor sanaladi.

Asal Sartbayeva esa Markaziy Osiyoning ilk tan olingan olim ayollardan biri.

Ko'rinadiki, yuqorida sanab o'tilgan ayollar yosh avlodga namuna sifatida ko'zga tashlanadi.

Huquq sohasidagi xotin qizlarning faoliyati ayniqsa faxrli va mashaqqatlidir. Chunki bu soha katta mas'uliyat talab qiladi.

Jamiyatimizda nafaqat ayollarning ko'proq erkak ishlaydigan kasblarda faoliyat yuritishini, balki erkaklarning ham ayollar ishlaydigan kasbda ishlashini to'g'ri qabul qilish zarur. Chunki har kim o'z xohlagan kasb turini tanlash huquqiga ega.

Masalan, erkaklar ko'p ishlaydigan sohalar arxitektor, dasturchi, montaj ustasi, rejissiyor, rassom, hunarmanchilik, harbiy sohalar, sportning turlari, huquqiy sohalar(advokat,prokuror, sud ishlari va hokozo) kabi bir qancha sohalarda; ayol kishilar ko'p ishlaydigan sohalar tikuvchilik, salonda ishlash(makiyaj qilish..), dizaynerlik sohalar va boshqa sohalarda ishlash huquqiga ega.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, jamiyatimizda ayol kishiga e'tibor oldingi davrga nisbatan yaxshilanganligini ko'rishimiz mumkin. Ayollar hamma narsaga qodir, faqat ularga ishonish va qo'llab quvvatlashning o'zi yetarli. Ularning jamiyatda erkin faoliyat yuritishi, oilada o'z o'rniga ega bo'lishi, o'z xohishiga ko'ra turmush qurish huquqiga ega. Ayollarning ham o'z tanlov huquqi bor. Ular ham jamiyatda

erkaklar kabi o'z o'rniga ega. Ular jamiyatda qadrlanishiga, erkaklar kabi barcha sohalrda ishlashi, o'qishi, bilim olishiga haqli! Ayol kishi baxtli bo'lishga loyiq. Ayollarning qadriga yeting, zero ayolsiz jamiyat - mazmunsiz umrdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
2. Abdulla Qodiriy „O'tkan kunlar“ Toshkent- 2007
3. Cho'lpon „Kecha va kunduz“ Toshkent- 2007
4. Said Ahmad „Ufq“ trilogiyasi, „Kelinlar qo'zg'oloni“ dramatik asari, „Qorako'z Majnun“ hikoyasi
5. O'tkir Hoshimov „Ikki eshik orasi“ romani
6. To'maris afsonasi